

HISTORY OF MADRASES IN KARSHI

Jamoliddin Kamol ugli Choliyev

Shahrisabz State Pedagogical University Graduate Student

ABSTRACT

This article talks about medieval destination of study in Middle East and Central Asian madrassas that were built in the past in the city of Karshi and are still preserved today. From this point of view, it is extremely important to study the history of Madrasahs in Karshi city. People's intelligency, which is in harmony with the past of the people, their good deeds, feelings and hopes of our people are expressed. Therefore, in the life of the city of Karshi in the Soviet era and now, it is necessary to review the general processes that are characteristic of the city as a target of education.

Keywords: Karshi, madrasah,mudarris,Shermuhammadbek ,Bekmirkazakh, Sharifkhoja, Kilichboy, Khoja Abdulaziz,Odina,Ko`kgumbaz, lavh,tolibi ilm, registan, hujrah.

QARSHI SHAHRIDAGI MADRASALAR TARIXI

Jamoliddin Kamol o'g'li Cho'liyev

Shahrisabz davlat pedagogika universiteti magistrant

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qarshi shahrida o'tmishda qurilib hozirgi kunda ham saqlanib qolgan o'rta asrlar Yaqin va O'rta sharqda oliy ta'lim beruvchi madrasalar haqida so'z boradi. Bu ta'lim maskanlari tariximizning ilmga oid eng muhim jihatlardan bittasi hisoblanad va ana shu nuqtai-nazardan ham Qarshi shahri madrasalar tarixini xalqo'rganish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqning o'tmishi bilan hamohang bo'lgan xalq ziyoli qatlami, ularning amalga oshirgan ezgu ishlari,xalqimizning his-tuyg'ulari, orzu umidlari ifodalangan. Shu bois, Qarshi shahri hayotida sovet davrida va hozirgi kunda hamta'limni nishoni sifatida eng avvalo unga xos bo'lgan umumiy jarayonlarni ko'zdan kechirish lozim.

Kalit so'zlar: Qarshi,madrasa, mudarris, Shermuhammadbek ,Bekmir qozoq, Sharifxo'ja, Qilichboy, Xo'ja Abdulaziz,Odina,Ko`k gumbaz, lavh,tolibi ilm, registon, hujra.

KIRISH

XIX-XX asrlar chegarasida Qarshida 20 ta madrasa bo'lgan. Ammo hozirgacha ularidan Sharofboy, Abdulazizboy, Qilichboy, Odina, Ko'k Gumbaz va Bekmir Qozoq madrasalargina saqlanib qolgan, xolos[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shermuhammad madrasasi

Madrasa XVII asrning so'nglarida-XVIII asr boshlarida qurilgan. Madrasa an'anaviy tarixga ega. U mukammal reja bo'yicha bunyod etilgan. Binoning ikki tomonidagi baland peshtoqning o'rta qismiga rangin koshinlar ishlatilgan. Boshqa tomonlari esa oddiy ko'rinchda. Madrasa

ikki qavatli qilib qurilgan. O'rtaliqdagi keng dahliz bo'ylab darsxonalar joylashgan. Me'moriy obidada sirli koshinlar kam ishlatilgan bo'lsa-da, ayniqsa, uning old qismi ko'rkm. Yassi ravoqlar va gumbazlar ham mohirona ishlangan. XVIII asrlarda bunyd etilgan madrasalarda bezak, naqsh nisbatan oz. Bu hol Samarqand, Buxoro, Xiva obidalari uchun ham xos[2].

Sharif Xo'ja madrasasi

XVIII asrning boshlarida barpo etilgan bu madrasa uning mudarrisi Sharif Xo'ja nomi bilan atalgan. Madrasa hajmi kichik bo'lib, u mahallaga mo'ljallab qurilgan. Tolibi ilm- lar yashashi uchun qurilgan hujralarga yondosh peshayvon mavjud. Imorat ichida yog'och ko'proq ishlatilgan. Namoz o'qiladigan, dars o'tiladigan joy ham mutanosib tarzda. Gumbaz ancha baland, u ikki qanot o'rtasida ko'kka bo'y cho'zib turadi[3].

Qilichboy madrasasi

Qilichboy Hotam madrasasi (1903 y.) tarixi va shamoyiliga ko'ra, Xo'ja Abdul Aziz madrasasidan farq qilmaydi. Bu ikki madrasa bir-biriga yaqin joylashgan. Madrasa XX boshida Qarshilik boy-badavlat, fozil inson Qilichboy tashabbusi va mablag'i tufayli qurilgan. U Bekmir Qozoq madrasasi uslubiga yaqin ko'rinishga ega, nisbatan hajmi kichik. Madrasa eniga 17,55, bo'yiga 18,29 gazni tashkil etadi. Hovli sakkiz qirrali bo'lib, bo'yi-9,0, eni-8,55 gaz keladi. Hovuz madrasa hovlisi o'rtasida joylashgan. Hujralari 12 ta, binoning peshtoq tarafli ikki qavatli. Peshtoqning yon tarafida gumbazsimon kichik qubbalar joylashgan.

Madrasaning har ikkala qavatidagi hujralar aylana shaklda, peshtoq esa baland qurilgan[4].

Xo'ja Abdulaziz madrasasi

Madrasa Xo'ja Abdulazizboy tomonidan 1909 yilda qurilgan. U Qarshining o'ziga to'q, saxovatli, ilmli kishilardan bo'lgan. Madrasa peshtoqida uning qachon bino etilganligi yozilgan lavh bor. Madrasa an'anaviy udumga rioya qilib bunyod etilgan. Chiroli tarxga ega bino ikki qavatdan iborat. Uning birinchi va ikkinchi qavatidagi hujralar har xil shaklga ega. Kiraverishdagi peshtoq baland va u binoga salobat berib turadi. Peshtoqning yon tomoniga qubbachalar ishlangan, ularga koshin bezaklar berilgan. Madrasaning ichki tomonida bu xildagi bezaklardan foydalanilmagan. Madrasa binosiga ishpatilgan g'ishtlar ham bir xilda emas. Binoning pastki tarafidan balaqd joylashgan qubbaga hadar kichik hajmli g'ishtlar ishlatilgan. Peshtoq va uning yon qismiga esa shakli turlicha g'ishtlar terilgan. Bino poydevori juda pishiq. Madrasaning old hismi bezaklarga ega bo'lmasada, o'ziga xos mahobat sezilib turadi[5].

Bekmir Qozoq madrasasi

Madrasa Bekmurodboy Pok Sarpusht-Bekmir qozoq tomonidan 1911 (hijriy 1329) yilda Qarshi qal'asining bosh maydoni Registonning shimol tomonda bunyod etilgan. Peshtoqdagi bitik shu haqida. Marmar lavhada forsiy tilda madrasa sohibi va uni hurgan me'morning ismi sharifi, tarixi yozilgan. Madrasa bo'yi 24 m., eni 20,5 m. hajmga ega bo'lib, pishiq g'ishtdan ko'tarilgan. Tarxi Buxoro madrasalarini eslatadi. Hovlisi ham katta, uning yuzasi 12,1 x 11,8 mdan iborat. Tolibi ilmlarga atab qurilgan hujralari soni 23 ta. Hujralar kirishda o'ng va chap tomonlarda joylashgan.

Hujralar, odatdagiday, bir xonali. Eshik ustida ganch panjaralar mavjud. Yorug'lik hujralarga shu darchadan tushadi. Peshtoq yonlamasida naqshli qubbalar bor. Peshtoq nisbatan past. Binoning ikki yon burchagida minoralar bo'lib, ular an- chayin bezatilgan. Madrasa bir qavatli, faqat uning peshtoq tarafida ikkinchi qavati ham bo'lgan.

Madrasaning ikki qutbida qubbalar qad rostlab turadi. Bino qurilishida sirli koshinlar ishlatilmagan. Madrasa tarixi Shermuhammad madrasasiga o'xshash. Bekmurodboy, aytishlaricha, mang'it urug'ining qozoq shoxobchasi dan bo'lib, hiyofasi qozoqlarga o'xshagan. Shu boisdan Bekmir Qozoq laqabi mashhur bo'lgan[6].

NATIJALAR

O'rganilayotgan davrda 5-6 yoshli bolalar masjidlar qoshida faoliyat yurituvchi maktablarda boshlang'ich ta'llim olishga yuborilgan. Ular maktablar deb ataldi. Bunday boshlang'ich maktablarda bolalar 4-5 yil o'qiydilar. Bu yerda, odatda, chorak masjid imomi ularga dars bergen. Maktablarda 1) Abjad, 2) Qur'on o'qish (Haftyakga ko'ra), 3) Farz-i ayn (iymon asoslari va), 4) Chor kitob, 5) Sa'diy («Bo'ston» va «Guliston») asarlarini o'rgangan. ”), 6) Xoja Xofizo (1325-1390),†7) So'fi Olloyor (1640-1721) forsiy asarlari, 8) Mirzo Bedil (1644-1721) Darslar shanba, yakshanba kunlari o'tkazilgan.Darslar shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari o'tkazilgan. Qolgan kunlar dam olish kunlari edi. [7]

Musulmonlar bayrami kunlari, Ramazon oyi va yoz fasli ta'til vaqtি hisoblangan. Maktabdan keyin 12 yoshli bolalar madrasada o'qishni davom ettirdilar. Eng boy talabalar (tolibu'l-il'm) alohida hujralarni (hujra) sotib oldilar, kambag'al va nochor talabalar ularni ijaraga olishlari yoki boshqa ijarrachilar yoki binolar egalari bilan kompaniya tuzishlari mumkin edi. Hamma madrasalar vaqf xo'jaliklari hisobidan faoliyat yuritgan. Talabalar madrasalarining vaqflaridan ham ma'lum daromad olib turardilar.‡Madrasada darslar Mizon oyining boshida (24-sentyabr) boshlanib, 22-martgacha davom etdi. Madrasa mudarrislari unvonlari va unvonlari jihatidan bir-biridan farq qiladigan mudarrislar deb atalar edilar. ilmiy darajalar. Ma'lumki, mudarrislar Buxoro ulamolarining, shuningdek, musulmon zodagonlarining asosiy qismini tashkil qilgan. Ular madrasa va boshqa diniy muassasalarining vaqflaridan, shuningdek, o'z mol-mulki va har xil turdag'i mol-mulkleri daromadlari hisobidan kun kechirishgan. [8]

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki,Qarshi shahrida amirlik davrida qad rostlagan oily ta'llim dargohlari – madrasalar mavjud edi.Bu muassasalar sovet davrida ham aholining ilmiy sohadagi ehtiyojlarini qondirib kelgan.Bu qadamjolar tarixini keljak avlodga yetkazish dolzarb masala.Bu ezgu ishlarni amalga oshirishda Bekmir Qozoq,Xo'ja Abdulazizboy, Qilichboy, Shermuhammadbek, Sharifxo'ja kabi uzoqni ko'ra bilgan ajdodlarimiz katta rol o`ynaganligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Masson.M.Y. Qashqadaryoning quyi oqimidagi qadimiy shaharlar. — T.: «Fan», 1973.
2. Ravshanov P. Qarshi tarixi.,-T.,Yangi asr avlodi,2006.
- 3.Yo'ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. T, Sharq, 2000.
4. Toshkent Sovet Uzbekistoni gazeta arxivlari 8 aprel, 1980.4-bet.
- 5.Ravshanov P. Adabiy sahifalar. T. Nasaf,1985.
- 6.Nasriddinov K, Xujayarov U. Qarshi shahrining me'moriy yodgorliklari, Yangi asr avlodi, Toshkent, 2011 — 30-33-betlar.
- 7.Sadriddin Ayniy.Avtobiografiya./Kulliyot,jild 1.-Stalinobod,1958.29-bet.
- 8.Semenov A.A. Buxoro xonligining yer-soliq tizimi haqidagi esse. Toshkent, 1929.17-bet.